

O'mon sultonligining Sho'ro kengashi raisi Xolid al-Mavali boshchiligidagi delegatsiyasi Sharqshunoslik institutida

2025-yilning 3-aprel kuni Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida Toshkentda bo'lib turgan O'mon sultonligining Sho'ro kengashi raisi Xolid al-Mavali boshchiligidagi delegatsiyasi Sharqshunoslik institutiga tashrif buyurdi. Institut direktori tarix fanlari doktori, professor Bahrom Abduhalimov mehmonlarga institut faoliyati haqida ma'lumot berdi.





Dastlab, mehmonlar institut muzeyidagi eksponatlar bilan tanishdi. Shundan so'ng, delegatsiya a'zolari hamda Institut ilmiy xodimlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Faxrli mehmon so'zga chiqib ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar tarixi, O'zbekistonning Islom olamidagi tarixiy o'rni haqida fikrlarini bildirdi. Uchrashuv so'ngida mehmonlarga institutda nashr etilgan kitoblar sovg'a qilindi.

Tashrif davomida mehmonlar Sharqshunoslik institutining boy qo'lyozmalar fondi, restavratsiya laboratoriysi hamda skanerlash laboratoriyalari faoliyati bilan ham tanishdi. Institut faoliyati mehmonlarda iliq taassurot qoldirdi.